

ISSN 2010-720X

ILIM HÁM JÁMIYET



FAN VA JAMIYAT

2024 (№1/1)

Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis
mámleketlik pedagogikalıq institutı hám jurnal redakciyası jámaáti
Shólkemlestiriw komiteti bashǵı: QODIROV Q. – NMPI rektori w.w.a.
Bas redaktor: PAZÍLOV A.

REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ

f.i.k., doc. **Abdiev A.** (Nókis);
 b.i.d., doc. **Ajiev A.** (Nókis);
 yu.i.k., doc. **Allamuratov A.** (Nókis);
 f.i.d., prof. **Ashirboev S.** (Tashkent);
 p.i.f.d. (PhD), doc. **Babaniyazova N.P.** (Tashkent);
 t.i.d. (DSc), doc. **Bazarbaev R.** (Nókis);
 b.i.f.d., doc. **Begjanov M.** (Nókis);
 filos.i.d., prof. **Berdimuratova A.** (Nókis);
 f-m.i.d., doc. **Dawletmuratov B.** (Nókis);
 p.i.k., doc. **Darmenov J.** (Nókis);
 e.i.b.f.d.(PhD), doc. **Eshimbetov U.** (Nókis);
 b.i.k., doc. **Eshmuratov R.** (Nókis);
 f.i.k., doc. **Eshniyazova E.** (Nókis);
 a/x.i.d., prof. **Jumamuratov A.** (Nókis);
 g.i.d., prof. **Jolıbekov B.** (Nókis);
 f-m.i.d., prof. **Ismailov Q.** (Nókis);
 f-m.i.d., prof. **Kamalov A.** (Nókis);

tex.i.d., doc. **Qayipbergenov A.** (Nókis);
 f-m.i.d., prof. **Karajanov S.** (Norvegiya);
 f.i.f.d. (PhD), doc. **Kdırbaeva G.** (Nókis);
 f-m.i.d., prof. **Qudaybergenov K.** (Nókis);
 t.i.d., doc. **Qochanov B.** (Nókis);
 f.i.d., prof. **Matchanov S.** (Tashkent);
 f-m.i.d., prof. **Metin Orbay** (Turkiya);
 f-m.i.d. (DSc), prof. **Otemuratov B.** (Nókis);
 f.i.d. (DSc), doc. **Palımbetov K.** (Nókis);
 f-m.i.d. (DSc), prof. **Prenov B.** (Nókis);
 tex.i.d., akad. **Reymov A.** (Nókis);
 t.i.d., doc. **Sarıbaev M.** (Nókis);
 f.i.k., doc. **Sapaeva F.** (Nókis);
 tex.i.d. (DSc), prof. **Seytnazarov Q.** (Nókis);
 g.i.d., prof. **Turdimambetov I.** (Nókis);
 f-m.i.d., prof. **Uteuliev N.** (Nókis);
 f-m.i.d., prof. **Yavidov B.** (Nókis);

D.Dogarova – juwaplı xatker
Z.Xodjekeeva – korrektor
N.Allamuratova – operator

Juwaplı redaktorlar:
 f.i.f.d., doc. **F.Sapaeva** – ózbek tili boyınsha
 f.i.f.d., doc. **G.Kdırbaeva** – rus hám inglis tilleri boyınsha
 Q.Bisenbaev – qaraqalpaq tili boyınsha

Jámiyetlik máslahátshiler:

f.i.d., prof. **Abdinazimov Sh.** (Nókis);
 t.i.d., prof. **Abdullaeva Ya.** (Nókis);
 b.i.d., prof. **Esimbetov A.** (Nókis);
 f.i.d., prof. **Járimbetov Q.** (Nókis);
 b.i.d. (DSc), doc. **Jumamuratov M.** (Nókis);
 f-m.i.k., doc. **Táńırbergenov S.** (Nókis);

Jurnal 1992-jıldan
«Qaraqalpaqstan muǵallımı»
atamasında shıǵarıla baslaǵan.
2004-jılda «Ilim hám jámiyet»
atamasına ózgeretilip, 01-022-
sanlı gúwalıq penen
Qaraqalpaqstan Respublikası
Baspasóz hám xabar agentligi
tárepinen dizimge alınǵan.

2020-jılı 07-avgustta
Ózbekstan Respublikası Prezidenti
Administracyası janındaǵı xabar
hám ǵalaba kommunikaciýalar
agentligi tárepinen qayta dizimge
alınıp, 1098-sanlı gúwalıq
berilgen.

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan
Respublikası Ministirler kabineti janındaǵı Joqarı
Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı
menen tómende kórsetilgen pánler boyınsha ilim
doktorı dárejesin alıw ushın maqalalar
járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine
kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

кўп сув куйган. Амударёнинг сувлари Сарикамиш ва Ассак-Аудан ботиғини босиб кетган (57-58м), натижада Ўзбой бўйлаб яна Каспийга сув оқиб туша бошлади.

Каспий денгизининг сатхи 6-6,5м га кўтарилди. XIX асрнинг ўрталарида замонавий типдаги иқлим шароитлари қарор топади. XX асрнинг охирига келиб иқлим шароитлари кескинлаша борди. Натижада тоғлардаги музликлар ҳажми кичрайди, кўплаб майда кўллар йўқолиб кетди ва чўллашиш жараёнлари кучайиб борди. XXI аср бошланишида инсоният олдида турган энг жиддий экологик ва ижтимоий-иқтисодий муаммолардан бири, бу чўлланиш муаммосидир. Чўлланиш, асосан арид минтақа учун хос бўлиб, ер, сув, ўсимлик ва бошқа ресурсларнинг дегератациялашувидир (фр.деградацион – аста-секин ёмонлашуви).

Чўлланиш деганда, табиий географик ва антропоген жараёнларнинг ўзаро таъсири йиғиндиси бўлиб, арид ҳудудлардаги экосистемаларни емирилиши, органик ҳаёт шакллариининг дегератациялашуви ва бу ҳудудларнинг табиий иқтисодий имкониятларининг пасайиши тушунилади. Чўлланиш жараёни оқибатида экологик вазиятнинг ёмонлашуви Марказий Осиё мамлакатлари, шу жумладан, Ўзбекистон ҳудуди учун ҳам нихоятда муҳим ва долзарб муаммодир.

Инсон хўжалик фаолиятининг кучли таъсири натижасида Ўзбекистон ҳудудининг 60%дан кўпроқ майдонида ҳар хил даражада чўлланиш жараёнини кузатиш мумкин. Чўлланиш жараёнининг шиддатли бориши кўпгина ижтимоий-иқтисодий ва экологик оқибатларга олиб келмоқда. Ўзбекистон ҳудудида чўлланиш жараёни чуқурлашиб ва кенгайиб бормоқда.

Адабиётлар

1. Лазуков Г.И. Взаимоотношение географической среды и палеолитического человека. В кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М.: «Наука», 1974. –С. 19.
2. Бадер О.Н. Проблема смещения ландшафтных зон в голоцене и археология. – в кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М.: «Наука», 1974. –С. 225-229.
3. Орловский Н.С. Механизм опустынивания и его последствия. // Опыт борьбы с опустыниванием в СССР. –М.: «Наука». 1988. –С. 364.
4. Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный льялакан. Этапы древнейшего заселения и освоения внутренних Кызылкумов. – М.: «Наука». 1975. –С. 234-255.
5. Мамедов Э. Д. Палеоэкология человека каменного века в пустынях Средней Азии. – в кн.: Культура и искусства древнего Хорезма. – М.: «Наука». 1981. –С. 82
6. Мамедов Э.Д. Изменения климата Среднеазиатских пустынь в голоцене. В кн. Колебания увлажнения Арало-каспийского региона в голоцене. –М.: «Наука». 1980. –С. 170-175.
7. Герасимов В.А. Тенденция развития горных ледников северного полушария в послеледниковое время. – в кн.: Труды высокогорного геофиз. Ин-та, вып. 18. Снег и снежные лавины. –Л.: Гидрометеиздат, 1972. –С. 132.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада қадим замонлардан бўён инсоният томонидан ўзлаштирилиб, ҳаёт кечириб келган Қизилқум чўлининг табиати ва иқлим шароитлари хусусида сўз боради. Маълумки, инсоният қадимдан ҳар қандай шароитда ҳам яшаш учун курашиб келган. Мазкур жараён, айниқса, ёзи жазирама, киши қаҳратон бўлган чўл минтақасида янада оғир эканлиги мақола давомида очиқ берилган. Иқлим ўзгаришлари хўжаликнинг хусусиятларига энг кучли таъсир кўрсатадиган омил эканлиги баён этилган. Мақола экологик муаммолар таъсирида рўй берган салбий оқибатлар, айниқса, чўллашиш даражасининг ошиб кетганлиги ҳақида маълумотлар берилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассказывается о природе и климатических условиях пустыни Кызылкум, которая была заселена человечеством с древнейших времен. Известно, что с незапамятных времен человечество боролось за выживание в любых условиях. В статье показано, что этот процесс особенно затруднен в пустынном регионе с жарким летом и суровой зимой. Изменение климата считается фактором, оказывающим наиболее сильное влияние на характеристики ферм. В ходе статьи приводятся сведения о негативных последствиях экологических проблем, особенно возросшем уровне опустынивания.

SUMMARY. This article talks about the nature and climatic conditions of the Kyzylkum desert, which has been inhabited by mankind since ancient times. It is known that since time immemorial mankind has been struggling to live in any conditions. The article reveals that this process is especially difficult in the desert region with hot summers and harsh winters. Climate change is said to be the factor that has the strongest impact on farm characteristics. During the article, information is given about the negative consequences of environmental problems, especially the increased level of desertification.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI HUDUDIIY TASHKIL ETISH MASALALARI

Sh.B.Qurbonov – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

A.A.Atabayev – *magistrant*

O'zbekiston milliy universiteti

K.K.Uzakbaev – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: aholi, xizmat ko'rsatish sohalari, pullik xizmatlar, chakana savdo, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, tibbiy xizmat, maishiy xizmat, hududiy tashkil etish, transport xizmati, ijtimoiy sohalari.

Ключевые слова: население, сфера услуг, платные услуги, розничная торговля, система образования, здравоохранение, медицинское обслуживание, бытовое обслуживание, территориальная организация, транспортное обслуживание, социальная сфера.

Key words: population, service sector, paid services, retail trade, education system, healthcare, medical care, consumer services, territorial organization, transport services, social sphere.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish va ularning faoliyat darajasini kengaytirish bugungi kunning muhim muammolaridan biriga aylangan. Bu masalani hal qilish uchun ma'lum qonuniyat va omillarni hisobga olish, maishiy xizmatga bo'lgan ehtiyojning hududiy tafovutlari va ularning talab darajasi, shuningdek, aholi joylashuvining tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, demografik sharoitidan kelib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridananoq, aholining turmush darajasini oshirishga, unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni tubdan isloh qilish, yangi boshqaruv shaklining bozor iqtisodiyoti talablari asosida shakllantirish

va rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu borada respublika hukumati tomonidan ijtimoiy sohalari rivojiga oid maxsus dastur, ko'rsatma, qaror va farmonlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilayotgani ijobiy natijalar bermoqda. Jumladan, 1997-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har bir yilga o'zgacha ramziy nom berilishi va shu asosda mazkur yil nomiga xos va mos sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish an'anaga aylangan. Ko'pchilik yil nomlari aynan ijtimoiy sohalarga: onalar va bolalar, shifokorlar, murabbiylar, qariyalar, homiylar, barkamol avlod, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ham o'z

mohiyatiga ko'ra ko'proq ijtimoiy faoliyat turiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 1-ilova "IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" bo'limi 37-70 maqsadlarining barchasida respublikamiz hududlarida ijtimoiy sohalarini jadal rivojlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan [2].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning «o'sish nuqtalari»ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari ko'rsatib berilgan [3].

Ma'lumki, har qanday iqtisodiy rivojlanish pirovard maqsadda ijtimoiy manfaatlarni nazarda tutadi. Bizning mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat ham, Respublika Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan asosiy maqsadlaridan biri ham aynan shu masalalarga qaratilgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohatlarimizning asosiy maqsadidir. Biz ushbu jabhadagi egzu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik. O'zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo'yicha bunday keng ko'lamli ishlar ilgari hech qachon bo'lmagan" [1:199].

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishi, mazkur tarmoqning so'nggi yillardagi rivojlanish omillarini o'rganish ishning maqsadi hisoblanadi. Maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi tadqiqot vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan: 1) Qoraqalpog'iston ma'muriy birliklarida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining joylashuv xususiyatlarini o'rganish; 2) Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanishi ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirish pog'onasimon, ierarxiyalı, tizimli tashkil etiladi. Bunda, eng avvalo, aholi joylashuvi, aholi manzilgohlarining kattalikligi, ularning funksiyasi va transport bilan ta'minlanish darajasi asosiy o'rin egallaydi. Bu V.Kristallerning *"markaziy joylar"* g'oyasiga binoan, mayda aholi punktlarida xizmat ko'rsatishning eng quyi bosqichi joylashadi, kattalashib borgan sari ularda tashkil etilgan bu sohalariga tegishli obyektlar ham kattalashib boradi.

Masalan, ta'lim tizimida aholi punktlarining kattalashib borishi bilan maktablar soni, turi va to'ri o'zgarib boradi: maktabgacha ta'lim boshlang'ich maktab, o'rta maktab, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar va akademik litseylar, oliy o'quv yurtlari va akademiyalar shaklida bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash, sog'liqni saqlash tizimida, odatda, tibbiy punkt – qishloq vrachlik punktlari (QVP), poliklinika, tuman kasalxonasi, tug'ruqxona ko'rinishida bo'ladi. Ixtisoslashgan kasalxonalar va tashxis markazlari esa ko'proq shaharlarda tashkil etiladi [5]. Aholiga savdo xizmatini ko'rsatish ham shu tarzda, ya'ni pog'onasimon (ierarxiya ko'rinishida) hududiy tashkil etiladi.

Mazkur tarmoqning asosiy vazifasi aholiga zarur barcha xizmat turlarini ko'rsatish va uning turmush darajasi,

yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan. Biroq aholi sonining ortib borishi bilan birgalikda unga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari ham kengayib boradi. Xususan, tuman markazlarida ushbu soha nafaqat shaharning o'zi uchun, balki qolgan qishloq tumanlari va shahar aholisi uchun ham zarurdir. Bu esa o'z navbatida, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini shahar hosil qiluvchi ahamiyatini yanada oshiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, markaziy joylar g'oyasining amalga oshishida aholi soni, joylashuvi bilan bir qatorda hududning tabiiy (relyef), iqtisodiy shart-sharoitlari, transport infratuzilmasi bilan ta'minlanganligi ham katta rol o'ynaydi. Shulardan kelib chiqqan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi geodemografik vaziyati va ijtimoiy sohalar rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ijtimoiy sohalar rivojlanishida, ayniqsa, aholiga pullik xizmat, chakana savdo ham katta ahamiyatga ega. Jami xizmatlar ko'rsatishda umumiy qonuniyat shundan iboratki, respublika poytaxti, yirik shaharlar yoki poytaxtgacha tutash ma'muriy birliklarda – qishloq tumanlarda ijtimoiy sohalar ko'rsatkichlari past darajada bo'lishi mumkin. Chunki aholi mazkur sohalaridagi ehtiyojlarini bevosita tanlash imkoniyati yuqori bo'lgan, o'zlariga yaqin bo'lgan "markazlarda" qondiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022-yilda 10421,9 mlrd so'm hajmda pullik xizmatlar ko'rsatilgan. Bu borada Qoraqalpog'istonning mamlakatdagi ulushi 2,9 % ni tashkil etadi va hududlar orasida faqat Jizzax va Navoiy viloyatlaridan oldinda turadi. Pullik xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (27,2 %), savdo xizmatlari (21,7 %), moliyaviy xizmatlarga (21,4 %) to'g'ri keladi. Shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi (6,5 %) ham nisbatan yuqori. Pullik xizmatlarning hududiy tarkibida Nukus shahri (42,1 %), Qo'ng'irot (14,8 %), To'rtko'l (7,7 %) va Amudaryo (5,2 %) tumanlari yuqori ulushga ega. Bo'zatov va Sho'manay tumanlarining bu boradagi ulushi esa juda past.

Aholi jon boshiga hisoblaganda, pullik xizmatlar hajmi 5310,8 ming so'mni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich Nukus shahrida 13233,9 ming so'm, Bo'zatov tumanida esa 2531,2 ming so'mga teng.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022-yil yakunlari bo'yicha 10803,0 mlrd so'mlik chakana savdo tovar aylanmasi qayd etilgan (O'zbekistondagi salmog'i 3,4%; hududlar orasida 13-o'rin). Nukus shahrining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi salmog'i 29,9 % ni tashkil qiladi. Qishloq tumanlaridan To'rtko'l (13,2 %), Beruniy (9,2 %), Xo'jayli (8,8 %) va Amudaryo (6,2 %) tumanlarining ko'rsatkichlari nisbatan yuqori. Eng past ko'rsatkich esa Mo'yunoq, Bo'zatov va Sho'manay tumanlariga tegishli [7].

Ta'kidlash joizki, bunday turdagi xizmatlarning asosiy qismi bozorlar orqali tashkil etilgan. Bozorlar bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini, aholining iqtisodiy ahvolini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biridir. O'tgan davrlarda ham bozorlarni ko'rish, o'rganish orqali yurtga, mamlakatga, hududga baho berilgan.

Aholi jon boshi hisobiga chakana savdo tovar aylanmasi Qoraqalpog'iston bo'yicha 5505,0 ming so'mni tashkil etgan. Faqatgina Nukus shahri (9737,1 ming so'm), To'rtko'l (6410,7 ming so'm) va Xo'jayli (7540,5 ming so'm) tumanlarining ko'rsatkichlari respublika o'rtachasidan yuqori. Bo'zatov tumanining bu boradagi ko'rsatkichi (1989,9 ming) o'rtacha darajadan uch martaga yaqin past.

Ma'lumki har bir mamlakat, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning ta'lim tizimi alohida mavqega ega. Chunki, mamlakat istiqboli, yosh avlod kelajagi, ularning intellektual salohiyati bevosita ta'lim tizimiga bog'liq.

Qoraqalpog'istonda 2022-yil holatiga ko'ra, 546 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lgan. Ularda tarbiyalanuvchilar soni 93258 ta, o'rta hisobda bitta maktabgacha ta'lim tashkilotiga 171 tadan mos keladi. 3-6 yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 79,7 % teng (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 62,0 % tashkil qiladi). Bu borada mintaqa respublika hududlari orasida peshqadam hisoblanadi.

2022/2023-o'quv yili boshida Qoraqalpog'istonda 746 ta umumta'lim muassasalari (3 tasi nodavlat) faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 17,7 % bir smenada, 81,9 % 2 smenada va 0,4 % i 3 smenada ishlaydi. Eng ko'p umumta'lim muassasalari Amudaryo tumanida (86 ta), Ellikqal'a (73 ta), Beruniy (72 ta) va To'rtko'l (69 ta) tumanlarida joylashgan. Poytaxt Nukus shahrida ularning soni 60 ta. Maktab o'quvchilari soni 326,5 ming nafar, bitta maktabga o'rtacha hisobda 438 ta o'quvchi to'g'ri kelgan. Ayni paytda, Nukus shahri maktablarida 64,6 mingta o'quvchilar bo'lib, shaharda bitta maktabga o'rtacha 1077 ta o'quvchi to'g'ri keladi. Ko'rilayotgan o'quv yilida o'quvchilarga 38,2 ming o'qituvchilar saboq berishgan. Jami o'qituvchilarning 93,7 % (35,7 mingtasi) oliy ma'lumotli. Ta'lim tillari kesimida olganda, 156,9 ming nafar o'quvchi o'zbek, 129,2 ming nafar o'quvchi qoraqalpoq, 45,9 ming nafar o'quvchi rus, 19,7 ming nafar o'quvchi qozoq, 10,6 ming nafar o'quvchi turkman sinflarida tahsil olgan [7].

Qoraqalpog'istonda 5 ta akademik litsey mavjud bo'lib, ularning 4 tasi Nukus shahrida, 1 tasi Chimboy tumanida joylashgan. Ularda jami 1,9 ming nafar o'quvchi tahsil olgan. Shuningdek, Qoraqalpog'istonda 22 ta kasb-hunar maktabi (10,0 ming o'quvchi), 14 ta kasb-hunar kolleji (8,3 ming o'quvchi) va 15 ta texnikum (7,7 ming o'quvchi) faoliyat ko'rsatgan.

Ta'lim tizimini samarali olib borishda ularga yetuk, malakali qadrlar yetkazib berish dolzarb masala hisoblanadi. Bu jihatdan 2022/2023-o'quv yili boshida Qoraqalpog'istonda 10 ta oliy ta'lim tashkiloti faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, Nukus shahrida Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filliali faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika OTMlaridagi talabalar soni 57503 nafar, ularga 2382 nafar professor-o'qituvchi mashg'ulot olib borishadi. Nukus shahrida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi mavjud.

Aholining ta'lim olishi, mehnat qilishi bevosita uning sog'lig'i bilan bog'liq. Bu esa mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimi faoliyati, davlat tomonidan bu sohaga qaratilgan siyosatda o'z aksini topgan. Shu bilan birga, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligini ko'rsatuvchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Bu esa, bevosita aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning miqdori va sifat jihatidan to'g'ri hududiy tashkil etilganligi bilan bog'liq.

Qoraqalpog'istonda 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 66 ta shifoxona mavjud bo'lib, ulardan 21 tasi Nukus shahrida joylashgan. Shuningdek, Ellikqal'a tumanida 7 ta, Chimboyda 5 ta, Qo'ng'iro't, Nukus va Taxiotosh tumanlarida 4 tadan mavjud. Umuman olganda, barcha tuman markazlarida markaziy shifoxonalar mavjud. Shifoxonalarda koykalar o'rni 7998 ta (40,1 % i Nukus shahrida), har 10 ming kishiga hisoblaganda esa 40,5 tani tashkil qiladi (Nukus shahrida 96,7 ta). Ambulator-poliklinika muassasalari soni 421 taga teng bo'lgan holda, 120 tasi (28,5 % i) Nukus shahrida, 35 tasi (8,3 % i) To'rtko'l, 34 tasi (8,1 % i) Amudaryo tumanlarida faoliyat ko'rsatadi. Shifokorlarning umumiy soni 5420 nafar, o'rta tibbiyot xodimlari 24827 nafar. Har 10 000 aholiga nisbatan

27,4 nafar shifokor, 125,6 nafar o'rta tibbiyot xodimi to'g'ri keladi.

Tabiiyki, aholi salomatligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bu - aholi orasidagi umumiy kasallanish hisoblanadi. Qayd etish lozimki, o'rganilayotgan hududda har 100 ming kishiga kasallanganlar soni 2022-yilda 48,8 ming kishini tashkil etgan holda, oldingi yilga nisbatan bu ko'rsatkich biroz kamaygan.

Ta'kidlash joizki, tibbiyot muassasalari har bir hududning ichki xususiyati, ya'ni kasalliklarning turi va tarqalganligiga mos holda tashkil etiladi. Quyi Amudaryo mintaqasida bevosita ekologiyaga bog'liq holda buyrak, siydik-ayirish tizimi kasalliklari, jigar-o't qobig'i, shuningdek, suyak-muskul, ruhiy buzilishlar kasalliklari ko'proq uchraydi. Taqqoslash natijalari ko'rsatishicha, ovqat hazm qilish organlari kasalliklari Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq tumanlarida eng ko'p uchraydi. Bu, o'z navbatida, noto'g'ri ovqatlanish hamda hazm qilishi qiyin bo'lgan non va non mahsulotlarini ko'plab iste'mol qilish bilan bog'liq [4].

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalaridan yana biri *transport xizmati* bo'lib, u shahar rivojlanishining asosini tashkil qiladi. Binobarin, aynan passajir transportini rivojlantirish va harakat tezligini oshirish "transportda charchash"ni kamaytiradi, bu esa turli kasalliklarning oldini oladi, pirovardida mehnat unumdorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston hududidan O'zbekistonni Rossiya bilan bog'lovchi Qo'ng'iro't-Beynov-Aleksandrov Gay temir yo'li o'tadi. Shu bilan birga, Nukus-Chimboy, Uchquduq-Miskin-Nukus, Buxoro-Miskin temir yo'llarining ishga tushirilishi nafaqat Qoraqalpog'iston balki, mamlakatimiz transport xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Respublikada 2022-yil davomida 33,7 mln tonna yuk tashilgan bo'lib, barchasi avtomobil transporti hissasiga to'g'ri kelgan. Yuk aylanmasi 865,8 mln tonna kmni tashkil etgan. Tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Nukus shahri (8062,4 ming t.) egallaydi. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar To'rtko'l (6450,2 ming t. va Amudaryo (3659,0 ming t.) tumanlariga ham tegishli.

Tashilgan yo'lovchilar soni 140,2 mln nafarga teng bo'lib, yo'lovchi aylanmasi 4119,6 mln yo'lovchi kmni tashkil qiladi. Yo'lovchi tashishda ham vaziyat yuk tashishga o'xshab ketadi. Bu borada Nukus shahri (51047,9 ming kishi) yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, To'rtko'l (14227,3 ming kishi) va Beruniy (13006,2 ming kishi) tumanlari ham yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Aholining yashash sharoiti ko'p jihatdan ijtimoiy infratuzilma shaxobchalarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Bu borada, ayniqsa, aholining toza ichimlik suvi, gaz va muntazam elektr energiya bilan ta'minlanishi katta mazmun kasb etadi.

2022-yil holatiga ko'ra, Qoraqalpog'istonda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 71,6 % tashkil qilgan. Mazkur ko'rsatkich Nukus shahrida (93,3 %), Taxiotosh (86,5 %), Xo'jayli (83,7 %) va Qonliko'l (81,9 %) tumanlarida nisbatan yuqori, aksincha, Beruniy (41,0 %) va Amudaryo (41,7 %) tumanlarida ancha past. Shuningdek, tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik Qoraqalpog'istonda 70,7 %ni tashkil qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi katta turistik va rekreatsiya imkoniyatlariga ham ega. Hozirgi paytda Qoraqalpog'iston hududida ko'plab arxeologik-qidiruv ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Yangi qal'a - shaharlar xarobalar ostidan qazib olinib, o'rganilmoqda. Respublikada Sulton Uvays bobo, To'rtko'l tumanidagi Qalandardog', Xo'jayli tumanidagi Mazlumxon suluv va Mizdakxon, Qo'ng'iro't tumanidagi Beleuli, Dovud ota maqbarasi, Mo'ynoq tumanidagi Hakim ota maqbarasi va qabristoni, Ellikqal'a tumanidagi Ayoqzal'a, Kechirmas

bobo, Norinjon bobo yodgorliklari mavjud bo'lib, ular turistlar diqqat markazida bo'lgan muhim markazlar hisoblanadi. Bu yerdagi mavjud turistik resurslar nafaqat mahalliy, balki xorijiy mamlakatlar sayyohlarini ham qiziqtirishi mumkin. Ammo, hozirda bunday imkoniyatlardan foydalanish talab darajasida emas [5:6-93].

Ijtimoiy sohalar inson hayot faoliyati bilan birlamchi darajada bog'langanligi barobarida, ular mamlakat, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini aks ettiruvchi, aholining kundalik hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog'iston hududida aholi juda notekis joylashgan, uning asosiy qismi Amudaryo deltasida, dehqonchilik maqsadida foydalaniladigan yerlarda o'rnatilgan. Respublikaning katta qismini egallab yotgan Ustyurt platosi, Qizilqum cho'li va Orol dengizining qirgan qismi – Orolqum cho'lida esa deyarli doimiy aholi manzilgohlari mavjud emas. Ushbu hududda aholi faqatgina magistral temir yo'l va qazilma konlariga yaqin shaharchalarda, shuningdek, qisman cho'llarda mavsumiy chorvadorlar yashaydi. Shu bois Qoraqalpog'iston Respublikasida ijtimoiy soharlarni tabiiy sharoitga mos va xos holda hududiy tashkil etish talab qilinadi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. 464-б.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022–2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori.
4. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси (Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси). – Тошкент: Университет, 2014. 404-б.
5. Курбанов Ш.Б. Ўзбекистон қишлоқ туманлари ижтимоий-иқтисодий географияси. Монография. – Т.: «Мумтоз сўз», 2019. 226-б.
6. Қорақалпоғистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегияси. // и.ф.д.А.М.Содиқовнинг умумий таҳрири остида. -Тошкент: IFMR, 2013. 252-б.
7. www.stat.uz

РЕЗЮМЕ. Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishi ko'rib chiqilgan. Statistik ma'lumotlar asosida aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish, chakana savdo, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari, shuningdek, aholini toza ichimlik suvi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta'minlash ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается территориальная структура сферы обслуживания в Республике Каракалпакстан. На основе статистических данных проанализированы показатели платных услуг, розничной торговли, системы образования и здравоохранения, а также обеспечение населения чистой питьевой водой, электро-энергией и природным газом.

SUMMARY. The article examines the territorial structure of the service sector in the Republic of Karakalpakstan. Based on statistical data were analyzed the indicators of paid services, retail trade, education and health care systems, as well as the provision of clean drinking water, electricity and natural gas to the population

ИЖТИМОЙ ГЕОГРАФИК ТАДКИКОТЛАРДА АХОЛИ ТУРМУШ ТАРЗИ КАТЕГОРИЯСИНИ ЎРГАНИШНИНГ БАЪЗИ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Х.А.Облақулов – география фанлари бўйича фалсафа доктори
Навоий давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: турмуш тарзи, турмуш сифати, турмуш даражаси, турмуш шароити, кундалик ҳаёти, ҳўжалик фаолияти.

Ключевые слова: образ жизни, качество жизни, уровень жизни, условия жизни, повседневная жизнь, экономическая деятельность.

Key words: lifestyle, quality of life, standard of living, living conditions, daily life, economic activity.

Инсоният таракқиёти асрлар давомида турли хил фанлар ва уларнинг ютуқлари асосида шаклланиб, ривож топиб келган. Шу нуктаи назардан фанлар тизимида география фани ҳам ўз мавқеига эга ва унинг ривожига кўплаб янги-янги тадқиқот ва изланишлар бўлиши табиий. Хусусан, кейинги йилларда мустақил республикамизда анъанавий иқтисодий географиянинг ижтимоий ва унинг кенг маънодаги ижтимоий география фанига айланиши юз бермоқдаки, бу албатта, ижобий жараёндир.

"Турмуш тарзи" атамаси кўпинча фалсафа, социология ва бошқа фан вакиллари, жумладан географлар томонидан кенг қўлланилади. У фундаментал ижтимоий-фалсафий тушунчалар каторига киради ва инсонлар ҳаётининг энг умумий хусусиятларини ўзида акс эттиради. Бу мураккаб ва кўп қиррали тушунчадир, шунинг учун ҳам у илмий муомала ва кундалик мулоқотимизда турли маънода қўлланилади.

Аҳолининг турмуш тарзи инсоннинг кундалик ҳаёт кечиришини ифодаловчи тушунча ҳисобланади. Аҳолининг кундалик ҳаёт тарзи унинг яшаётган табиий ва техноген муҳити, ҳўжалик машғулотлари, турмуш даражаси, этник маданияти (яъни, миллий урф одатлари, қадриятлари, анъаналари), диний қадриятларига боғлиқдир.

Тадқиқотчилар томонидан "турмуш тарзи" тушунчаси турлича таърифланган. Хусусан, Г.Е.Глезерманнинг фикрига кўра, турмуш тарзи жамият, миллат, ижтимоий гуруҳ ва индивидларнинг

маълум бир ижтимоий-иқтисодий муносабатлар таъсирида шаклланган ҳаёт тарзи ва ҳаёт фаолиятига оид энг муҳим белгиларни ифода этади [5:282-283]. Бунда муаллиф ўз тадқиқотида ижтимоий гуруҳ деганда, асосан, деҳқон ва ишчилар синфларини назарда тутган.

Таниқли социолог И.В.Бестужев-Лада ўз асарларида турмуш тарзини ўзига хос бўлган инсон ҳаёти, шахси, яшаш муҳити, оиласи, маданий қизиқишлари билан боғлиқ ижтимоий-фалсафий ҳодиса сифатида таърифлайди [3:14]. Олим турмуш тарзига ижтимоий-сиёсий тузум таъсири борлигини таъкидлайди, бинобарин, ижтимоий турмуш тарзи турли тузумлардаги турмуш тарзи маънавий ва маданий жиҳатдан фарқ қилишини эътироф этади. Шунингдек, олим "турмуш тарзи" категорияси борасида "етук ва ниҳоясига етган тамойил ёки моделлар ҳанузгача кашф этилмаган", деган хулосага келган [2:4].

Файласуф В. Толстихнинг фикрига кўра, аҳоли турмуш тарзи кишиларнинг индивидуал ва рухий ҳаётини фаолиятини ифодаловчи ижтимоий-фалсафий категориядир [8:27].

Иқтисодчи Л.Капустин турмуш тарзининг атрибути ижтимоий-иқтисодий қимматга эга бўлган уй-жой, асбоб-ускуналар, яшаш шарт-шароитлари эканини эътироф этади ва турмуш тарзи тушунчасини ижтимоий-иқтисодий категория, деб таъкидлайди [6:19-26].

Т.Абдуллаевнинг илмий тадқиқотларида турмуш тарзи инсоннинг моддий ва маънавий эҳтиёжларини

M A Z M U N Í
BAS MAQALA

Қодиров Қ. Педагог мақоми – мамлакатимиз сиёсатининг асосий йўналишига айланди	3
TÁBIYIY HÁM TEXNIKALÍQ ILIMLER	
Fizika. Matematika. Texnika. Informatika	
Ayimbetov M.J., Kabulova L.B., Dastanova A.A. Betonniń mexanikalıq bekkemligine jergilikli vollastonit qosımshasınıń tásiiri	5
Исламов Х. Краевая задача с конормальной производной для уравнения эллиптического типа второго рода	7
Курбанов Б.Т., Каримбоев Ж.Б. Об обобщениях верхней полуплоскости в многомерном комплексном пространстве	10
Nurimov P.B. Ovozni tanib olish tizimlari	12
Orinbaev A.B., Axunbetova Z.N. Elektr energiyasini uzatish tarmoqlaridagi xarajatlarni minimallashtirishni matematik modellashirish	14
Prenov B.B. Ulug' alloma al-Beruniyning matematik meroslari haqida	17
Seitnazarov K.K., Dosimbetov A.M., Turdışov D.X. Yer osti suvlarini monitoring qilishda aerokosmik tasvirlarga raqamli ishlov berish	19
Tillyakhodjaeva Z.D., Dergacheva I.V., Quranboyeva Z.E., Mirvaliyeva N.R., Jumamuratov A., Sultashova O.G. Dynamics of changes in blood pressure diseases on the territory of Uzbekistan due to weather changes	21
Umarzoda Sh.A. Dasturlash asoslarini o'rganishda o'zaro baholash usulidan foydalanish va qo'llashning asosiy mezonlari	24
Шомирзаев Б.У. Применение нечеткой системы управления для мониторинга и управления параметрами газопровода	26
Biologiya. Zoologiya	
Абдурахмонов Ш.А., Бердибаев А.С. Наўайы ўёлаяты ийт <i>Canis lupus familiaris</i> лери цестода класы гельминтлериниң заманагөй түр курамы	29
O'ktamova S.M. Shohimardonsoy daryo havza landshaftidagi meliorativ holat, geoeologik vaziyat va ularni yaxshilash masalalari	30
Темирбеков О. Қарақалпақстан Республикасының тәбийий флорасында курамалыгүлдилер- <i>Asteraceae d u m o r t.</i> туқымласы ўәкиллериниң тарқалыўы	32
Geografiya	
Bayqabilov X.M. Poytaxt shaharlarning geografik joylashuvida relyefning ahamiyati	36
Жалилов М.Б. Қизилкумда содир бўлган иқлим ўзгаришлари ва унинг оқибатлари ...	38
Qurbonov Sh.B., Atabayev A.A., Uzakbaev K.K. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish masalalari	39
Облақулов Х.А. Ижтимоий географик тадқиқотларда аҳоли турмуш тарзи категориясини ўрганишнинг баъзи назарий масалалари	42
Radjarov M.Ya., Eshimbetov U.X. Qoraqalpog'iston hududining geografik o'rganilish tarixi	45
Ro'zmetov D.R. To'qimachilik sanoati xom ashyosi va mahsulotlari ishlab chiqarilishi geografik jihatlari	46
Утепова Г.Б. Халықтың тәбийий хәрекетине илимий көзқарас	50
JÁMIYETLIK HÁM EKONOMIKALÍQ ILIMLER	
Tariyx. Huqıqtanıw	
Абаев С., Якубов М., Сарыбаев М. Президент Шавкат Мирзиёев – миллетлерара хэм динлерара татыўлық ҳаққында	53
Абдуллаев А. Амударё бўлимининг ташкил этилиши ва унинг кундаликли маъмурий худудий бошқарилиш тизими	55
Джумагельдиев Н.Р. Исторические этапы развития социально-экономической и экологической политики Каракалпакстана в годы независимости (1991-2021гг.)	57
Есназарова З.Б. Қарақалпақстан аймағында қалалардың генезиси хэм типологиясы (Шымбай қаласы мысалында)	60